





Nogironligi bor insonlar va keksalar uchun ichki turizmdagi imtiyozlar



Illyustratsiya	Oson matn
	Bu maqolada sen nogironligi bor insonlar va qariyalar uchun **ichki turizmdagi imtiyozlar** haqida bilib olasan.
	Ichki turizm – bu sen O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilish. Masalan, sen O‘zbekistonning boshqa viloyatlariga yoki tog‘lariga borishing.
	O‘zbekistonda **“Sayohat barcha uchun”** degan loyiha bor.
	**“Sayohat barcha uchun”** loyihasida har yili mingta nogironligi bor insonlar O‘zbekiston bo‘ylab bepul sayohat qilishadi.


	**“Sayohat barcha uchun”** loyihasining sayohatlarida sen uchun barcha sharoitlar yaratiladi.
	O‘zbekistonda “Keksalar uchun turizm” loyihasi ham bor.
	Bu loyiha yordamida birinchi guruh nogironligi bor qariyalar 1 yilda bir marta O‘zbekiston bo‘ylab bepul sayohat qilishlari mumkin.
	Vazirlar Mahkamasining 340-sonli qaroriga ko‘ra loyihada faqat shifokor xulosasi bilan: ● birinchi guruh nogironligi bor ● pensiya yoshiga yetgan ● O‘zbekistonda yashaydigan qariyalar qatnashishi mumkin.



	Sayohat davomida qariyalarning: ● yashaydigan joyi ● ovqatlantirish ● va transport xarajatlari bepul hisoblanadi.
	Xarajatlarning yarimini “Vaqf” xayriya loyihasi, qolganini “Nuroniy” jamg‘armasi to‘laydi.
	Sayohat davomida loyihada qatnashayotganlarga shifokorlar tomonidan kerakli yordam ko‘rsatiladi.
	Qariyalar sayohatdan oldin: ● https://uzbekistan.travel/uz/ internet manzilidan ● yoki 71-200-00-88 raqami orqali sayohat manzili haqida **kerakli ma’lumotlarni olishlari mumkin.**

	Loyiha bo‘yicha sayohat qilishni xohlaganlar yashash joyidagi: ● tuman (shahar) hokimliklariga ● mahalla fuqarolar yig‘ini raisiga **murojaat qilishi kerak.**
	**“Keksalar uchun turizm”** loyihasi har yili 1-noyabrdan 30-noyabrgacha amalga oshiriladi.
	Qariyalar 1-oktyabrgacha tuman (shahar) hokimliklarining **oila va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limlariga** murojaat qilishlari kerak.
	Chunki loyiha ishchilari 1-oktyabrgacha sayohat qiluvchilar ro‘yxatini tuzishlari kerak.
	Noyabr oyi davomida Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining internet manzilida: ● sayohat manzillari ● muzeylar

	• chegirmalar e’lon qilinadi.
	Sayohat davomida qariyalarga volontyorlar yordam beradi.
	Volontyorlar turizm sohasini yaxshi bilishlari kerak.
	Volontyor – bu qariyalarga yordam berishni xohlaydigan insonlar.
	641-sonli qonunning 24-moddasiga ko‘ra: • transport xizmatini ko‘rsatadigan tashkilotlar nogironligi bor insonlar uchun kerakli imkoniyatlarni yaratishi kerak.

	Transport tashkilotlari: • Jamoat transportini maxsus vositalar bilan jihozlashi • Eshitishda nogironligi bor insonlar uchun ekranlar o‘rnatishi • Bekatlar ovozli e’lon qilinishi • Shahar va qishloq jamoat transporti yo‘nalishlari va ko‘rsatkichlarini rangli katta harflar bilan yozishi • Yo‘lovchi poyezdlarining vagonlari maxsus o‘rinlar va perronlar bilan jihozlashi • Poyezd vokzallarini maxsus mexanik panduslar bilan jihozlashi kerak • Aeroport, vokzallarda, poyezd bekatlari va metroda nogironligi bor insonlarni transportgacha kuzatib borishda imkoniyat yaratishi kerak.
	Jamoat transporti – bu hamma foydalanadigan: • avtobus • mashina • metro • poyezd • samolyotlar

	“Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida” qonunning 25-moddasiga ko‘ra: 1. Mehmonxona egalari xonalarning kamida bittasini aravachadan foydalanadigan nogironligi bor insonlar uchun qulay jihozlashi shart.
	2. Nogironlik aravachasidan foydalanuvchi insonlar uchun ajratilgan xonalar eshigi eniga 0.9 metrdan kam bo‘lmasligi kerak.
	3. Eshitish va ko‘rish bo‘yicha nogironligi bor insonlarga e’lonlar uchun ekranlar va ovozli qurilmalar o‘rnatilishi shart.
	4. Xona eshigiga inson yuzini ko‘rish uchun qo‘yilgan ko‘zcha poldan 1 metr 2 santimetrdan baland bo‘lmasligi kerak.

	5. ● Vanna ● dush kabinalari ● unitazlar ushlagichlar bilan jihozlangan bo‘lishi shart.
	Agar mehmonxonada yuqoridagi sharoitlar bo‘lmasa, mehmonxona rahbari Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi qonuningning 51 prim 1-moddasiga ko‘ra, bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 15 baravarigacha jarimaga tortiladi.
	**Jarima** – bu biror tashkilot yoki rahbar qonunda ko‘rsatilgan qoidalarni buzganda davlatga pul to‘lashi.
	Hozirgi kunda 1 bazaviy hisoblash miqdori 340 (uch yuz qirq) ming so‘m.
	Yuqoridagi holatlar kuzatilganda, sen: ● Mehmonxona joylashgan tuman shahar hokimligiga ● Ijtimoiy himoya milliy agentligi “Inson” markazlariga

	• “O‘zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi”ga og‘zaki yoki yozma shikoyat qilishing mumkin (ariza namunasi 1-ilovada).
	Ular muammoni o‘rganib, chiqishadi va kelajakda bo‘ladigan noqulayliklarni oldini olish choralarini ko‘radi.